

"SAUDIYO ARABISTONINING MUSULMON OLAMIDAGI SIYOSATI. SAUDIYO –
ERON GEOSIYOSIY MUNOSABATLARI"

Yangiboyev Abdulaziz O`tkir o`g`li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Email: yangiboyevabdulaziz53@gmail.com

Tel: +998931453353

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Saudiyo Arabistonning musulmon olamiga bo`lgan siyosati, mintaqada yetakchilik uchun Eron bilan raqobati, ikki davlatning o`zaro ziddiyatli munosabatlari, Iroq hamda Suriyada manfaatlar to`qnashuvi haqida bayon etiladi.*

Kalit so`zlar: *Panislomizm, al-Azhar tashkiloti, Islom Olami Kongressi, Maykl Doran, SAP, RAND, B.Asad, TIV Islom ishlari departamenti, ADL, al-Saud, Saddam Husain, Xobar va Dahron shaharlari.*

Saudiya Arabistoni musulmon davlatlarining etakchisi bo'lishga da'vogar ekan, tashqi siyosati shunga mos ravishda islomiy aqidalarga mos bo'lishi kerak, degan fikrni ko'plab ekspertlar ma'qullayaptilar. Uning hududida islom olamining eng muhim qadamjolari joylashgan bo'lib, jahon musulmonlari imkoniyatlari darajasida bu joylarga haj safari bilan boradilar, ziyorat qiladilar. Rossiyalik muallif A.Yakovlevning fikricha, «Mana shuning o'zi podsholik tashqi siyosatida etakchi xususiyatlardan biri sifatida «islom omili»ni ajratib ko'rsatish uchun kifoya», chunki, «mamlakat hukmronlari haj safaridan nafaqat islom olamidagi ta'sirini mustahkamlash, balki tom ma'noda tashqi siyosiy manfaatlari yo'lida ham foydalanadi»⁶⁵.

Feodal-mustabid tuzumlar va ularning mafkurachilari musulmonlar birligi, panislomizm va panarabizm g'oyalarini davlatlararo munosabatlar nuqtai nazaridan hamisha yoqlab kelganligi, ustiga ustak islom olamini rivojlantirish borasida xalifalikning «oltin davri» va uni kelgusida qayta tiklash g'oyasi ilgari surib kelingani ta'kidlanadi. «Panislomizm yoki panarabizm harakatining tashabbuskori bo'lgan davlatning poytaxti bunday xalifalikning markazi bo'lishi kerakligi esa shubhasiz»⁶⁶.

Ayni paytda hozir shu islom davlatlari musulmon jamoalarining milliy va diniy kontseptsiyalari o'rtasidagi tabiiy ziddiyatlarni ularni birlashtirish maqsadini qo'ygan holda hal qilishni mo'ljallayapti. Xususan, Saudiya

⁶⁵ Яковлев А.И. Исламский фактор в политике Саудитов в 90-е годы XX в. // Ближний Восток: проблемы региональной безопасности (сборник статей). – М., 2000. – С. 67.

⁶⁶ Жданов Н.В. Исламская концепция миропорядка. – М.: Международные отношения, 2003. – С. 14.

Arabistoni TIV Islom ishlari departamenti direktori M.ash-Sharifning so'zlariga ko'ra, «Islomiy birdamlikka da'vat islom va arab davlatlarini birmuncha keng ko'lami birlashuvga yo'naltirish bo'lib, musulmonlarni zamonaviy jamiyatlar doirasida islom bayrog'i ostida jipslashtirish va shu asno islom mamlakatlari o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, ziddiyat va kelishmovchiliklarni islom ta'limotiga muvofiq bartaraf etish, imkon boricha tinch vositalar bilan hal qilish, jahon jamoatchiligi, ayniqsa insoniyatni yadro urushi va qirg'in - barotlardan saqlab qolish borasidagi hamkorlikni ta'minlash, butun insoniyat farovonligi yo'lida ma'rifiy jamiyat barpo etishga hissa qo'shishdan iborat»⁶⁷.

Aksariyat tadqiqotchilar Saudiya Arabistoni hukmron tabaqalariga xos ikkiyuzlamachilikka e'tiborni jalb qiladilar, ayni shu holat ular yuritayotgan tashqi siyosatning hamisha ziddiyotli bo'lishini ta'minlab kelayotir. Bir tomondan, «Amerika imperializmining ittifoqchisi va mijozi sifatida» Saudiya Arabistoni uning tashqi siyosiy chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlashi kerak. Boshqa tomondan, musulmon olamining etakchisi tariqasida Saudiya podsholigi sionizmga va Isroilning tashqi siyosiy qadamlariga qarshi chiqib, Falastin va Sharqiy Quddus masalasida aniq mavqega ega bo'lishi zarur. Ayni shu nuqtada ham islomiy birdamlikni amalga oshirishda sustkashlik ko'zga tashlanadi.

Islom dunyosi doirasidagi xalqaro aloqalarda Saudiya Arabistoni salmoqli o'ringa ega ekanidan qat'i nazar Saudiya Arabistoni Podshohligini mazkur mamlakat xalqaro siyosatining asosini tashkil qiluvchi islomiy qadriyatlarning bosh targ'ibotchi-tashviqotchisi, musulmon mamlakatlarining shubhasiz etakchisi va rahbari sifatida qaror toptirish vazifasi oson ish emas. Jumladan, ADL Saudiya Arabistonini «Ollohning nazari tushgan o'lka» sifatida ta'riflaydi, biroq «haqiqiy islom davlati» maqomiga Pokiston ham da'vogarlik qilayotir. Bu borada uni Islom Olami Kongressi (IOK) qo'llamoqda. Islom harakatining etakchisi sifatida Misr ham ko'rsatilmoqda. Bunga bir qator asoslar bor, Misrning al-Azhar tashkiloti obro'-e'tibori juda yuksak ekani ham shu jumlagi kiradi⁶⁸.

Ayni paytda Saudiyaning arab-musulmon olamidagi yuksak mavqeini qaror toptirish uchun ar-Riyodning qudratli vositasi bor – bu rivojlanayotgan mamlakatlarga, avvalo Afrika-Osiyo mintaqasidagi davlatlarga iqtisodiy yordam bo'lib, bu yo'l Saudiya tashqi siyosiy yo'lining jiddiy yo'nalishi tusini olgan. SAP tashqi siyosatining strategik vazifalari ro'yxatida «iqtisodiy yordam ko'rsatish» to'rtinchi o'rinda. Dastlabki o'rinlarni tashqi xavfsizlikni ta'minlash,

⁶⁷ Мелихов И. Арабо-исламская составляющая внешней политики арабских государств Персидского залива // Россия и мусульманский мир. – М.: ИНИОН, 2000. – № 8. – С. 90.

⁶⁸ Жданов Н.В. Исламская концепция миропорядка. – М.: Международные отношения, 2003. – С. 15.

arab va islom dunyosi mamlakatlari bilan birdamlikni rivojlantirish, va nihoyat, xalqaro barqarorlik va tinchlikni ta'minlash masalalari egallagan. Rossiyalik tahlilchilarning uqtirishicha, Saudiya hukmron doiralari bunday yordamni, aslida, xalqaro aloqalar sohasidagi boshqa vazifalarini hal qilishning eng qulay usullaridan biri sifatida qaraydi.

XX asrning 90-yillariga qadar ikki davlat hukumatlari, diniy rahbarlari va islomiy harakatlarining arab va islom dunyosida va hatto xalqaro miqyosda kechayotgan ko'plab siyosiy jarayonlarga nisbatan munosabatlari deyarli bir xil edi. Biroq, eronlik va saudiyalik diniy ulamolar, 90-yilda Iroqning Quvaytga qilgan tajovuzini qoralab chiqqan bo'lsalarda, ammo, Saudiya Arabistoni erlariga xorijiy davlatlarning qo'shinlari kiritilishini qattiq tanqid ostiga oldilar.

SAP hududlariga xorijiy qo'shinlar kiritilgandan boshlab Saudiya Arabistonidagi radikal islomchilari Podshohlikda AQSh kuchlarining mavjud bo'lishiga qarshi urush e'lon qilib, Podshohlikning Xobar va Dahron shaharlaridagi AQSh harbiy bazalarida bir necha teraktlar sodir etdilar.

Vashingtonning 2003 yilda Iroqqa qilgan harbiy operatsiyalari bir qator arab mamlakatlaridagi kabi Saudiya Arabistoni va Eronlik ko'plab diniy rahbarlar va muxolif partiyalar orasida qattiq noroziliklarni keltirib chiqardi.

RANDning yaqindagi xabariga ko'ra, mazhablar o'rtasidagi farq Saudiya va Eron o'rtasidagi aloqalarning yomonlashuviga olib keluvchi eng asosiy sabab emasligi keltirib o'tilgan. 2011-yilda Arab inqiloblari boshlangunga qadar ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar siyosiy doiradan ancha olislab ketgan edi⁶⁹.

Saudiya – Eron ziddiyatlarini mintaqadan tashqarida ham ko'rish mumkin. Bu ikki mamlakatning Yaqin Sharqdagi muammolar bo'yicha pozitsiyasi har xil. Uzoq davr hukmronlik qilgan diktatorlarning Tunis, Misr va Liviyada ag'darilishi AQSh tomonidan Saddam Husaynning olib tashlangandagi holati kabi mintaqadagi kuchlar muvozanatiga ta'sir qildi. Shunga qaramay, 2011-yildagi inqiloblar, 2003-yildagi Iroqdagi ozodlikdan farqli o'laroq, siyosiy islohotlarni kutishdan charchagan mahalliy aholi tomonidan amalga oshirildi. Bu inqiloblar har qanday ko'rinishdagi qirolliklarni ag'darishni o'zining bosh maqsadi qilib olgan siyosiy namoyishchilarni al-Saud oilasi uchun eng katta xavfga aylantirdi. Foreign Affairs jurnalida Maykl Doran tasvirlaganidek "Bugungi kun inqiloblari ish va siyosiy vakillikni o'zida birlashtirgan mahalliy talablar orqali amalga oshirilmoqda.". Saudiya va Eron ham bu kabi mahalliy muammolardan holi

⁶⁹ Doran M.S. The Heirs of Nasser: Who Will Benefit from the Second Arab Revolution? // Foreign Affairs. –No.3. –2011.

emas va shuning uchun ular o'z fuqarolariga har tomonlama qoniqtiruvchi sharoitlar yaratib berishi lozim.

Xususan, Suriya masalasida ikki davlat qarama-qarshili shunday: Suriyada Hozirda davom etayotgan B.Assad boshqaruvidagi hukumat va siyosiy-harbiy oppozitsiya o'rtasidagi kurash bugunga kelib haqiqiy ma'noda mintaqaviy mojaroga aylandi. Chunki, bu Suriyaning o'zidagi ichki nizogina emas, balki mintaqadagi yirik kuchlar bevosita yoki bilvosita ikki tarafdin birini qo'llash orqali ushbu nizoga aralashib qolganligi bilan xarakterlanadi. Saudiya Arabistoni va Eron misolida oladigan bo'lsak, SAP anti-Assad muholifatiga yon bosuvchi mintaqaviy kuchlardan biri hisoblansa, Eron esa Assad hukumatini saqlab qolishga intiladi. 2009-yil oktabrda. SAP Suriya bilan munosabatlarning yaxshilanishida Damashqning mintaqadagi muhim rolini e'tirof etdi, ham B.Assad rejimi va Eron o'rtasidagi munosabatlarning pasayishiga harakat qildi⁷⁰.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hozirgi kunda Saudiyo Arabistoni musulmon olamiga yetakchi bo'lishga intilayotgani hech kimga sir emas. Musulmon olamida yuz berayotgan o'zaro mojarolar, g'alayonlarni yetakchidek bostirishga harakat qilmoqda. Musulmon davlatlariga imtiyozli qarzlarni berib davlat iqtisodiyotini qo'lga olishni rejalashtirmoqda. Bu yo'l orqali mintaqada yetakchi bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Bu masalada islom dunyosida o'z o'rniga ega bo'lgan Eron bilan raqobatlashmoqda. Raqobat izidan sekin astalik bilan ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Musulmon olamidagi bu ikki yirik davlatlar ko'plab masalalarda o'zaro kelishmovchiliklar yuz berib turibdi. Buni biz Suriya misolida ko'rishimiz mumkin. Saudiyo Arabiston Suriyadagi Bashar Asad hukumatiga muholifat hisoblansa, Eron esa aksincha Bashar Asad hukumatini qo'llab quvvatlab kelmoqda. Hozirgi kunda ham ikki davlatning ziddiyatli munosabatlari davom etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yakovlev A.I. Islamskiy faktor v politike Sauditov v 90-e gody XX v. // Blijniy Vostok: problemy regionalnoy bezopasnosti (sbornik statey). – M., 2000.
2. Jdanov N.V. Islamskaya kontseptsiya miropanyadka. – M.: Mejdunarodnyye otnosheniya, 2003.

⁷⁰ Benedetta B. "The Ongoing Battle for Beirut: Old Dynamics and New Trends," *INSS Memorandum No. 111*, December 2011. –P.19.

3. Melikov I. Arabo-islamskaya sostavlyayushchaya vneshney politiki arabskix gosudarstv Persidskogo zaliva // Rossiya i musulmanskiy mir. – M.: INION, 2000.

4. Doran M.S. The Heirs of Nasser: Who Will Benefit from the Second Arab Revolution? // Foreign Affairs.–2011.

5. Benedetta B. "The Ongoing Battle for Beirut: Old Dynamics and New Trends.

6. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).

7. Mamarajabov, B. N. O. L. (2021). SAUDIYA ARABISTONDAGI OZBEK (TURKISTONLIK) LARGA DOIR TARIXIY JARAYONLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 895-900.